

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**KONRATBAEVA AYJAMAL BAZARBAEVNA**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-  
ATVORNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
psychological sciences**

**Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna**

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvorning psixologik  
determinantlari.....3

**Конратбаева Айжамал Базарбаевна**

Психологические детерминанты агрессивного поведения у младших  
школьников.....23

**Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna**

The psychological determinants of aggressive behavior in primary school age  
learners.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....47

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**KONRATBAEVA AYJAMAL BAZARBAEVNA**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-  
ATVORNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/P390 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sherimbetova Zamira Shalabaevna**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Abdurasulov Rustam Abduraimovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Ganjiyev Feruz Furqatovich**  
psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32); faks: (+99871) 276-76-51;

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori, professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
psixologiya fanlari doktori,  
professor

**Z.T.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlik kun sayin ortib borayotganini ularga ta'lim beruvchi o'qituvchilar ta'kidlashmoqda. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, "Rossiyalik o'quvchilarning har ikkisidan biri (57%)da maktabda tengdoshlari tomonidan ko'rsatiladigan agressiyaga duch kelishmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishida ularning uchdan bir qismi (32%) psixologik zo'ravonlik, masxara qilish, tahdid va trolling, 27 % esa turtish va kaltaklashdan shikoyat qilishgan"<sup>1</sup>. Bu borada mazkur holatning dunyoning turli mamlakatlarida kuzatilishi tendentsiyasi ham mavjudligi va keng darajada namoyon bo'lishi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlik fenomenini dolzarb ahamiyatli sifatida ilmiy tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi va bu masala dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlik psixodiagnostikasi, psixokorreksiyasi va psixoprofilaktikasi, agressiv bolalardagi emotsional buzilishlar, agressivlik determinantlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada nafaqat kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy va psixologik omillar, balki shaxsning jamiyatga moslashmaganligi, ota-onalarning bandligi tufayli, farzand tarbiyasiga yetarlicha e'tibor bermasligi muammolarini o'rganishga yo'naltirilgan psixologik tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sifatini yaxshilashga erishish, ta'lim oluvchilarning hissiy holatlarini boshqarishga o'rgatish dolzarb bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining 41-maqsadida: "...maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish"<sup>2</sup> masalasining ustuvor vazifa sifatida qaralishi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlikni susaytirish asosida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda nazariy yechimlarini topish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-maydagi O'RQ-837-son "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-iyuldagi 472-son "Jamiyatda psixologiya va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlar

---

<sup>1</sup> <https://life.ru/p/1251920> y

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/5841063>

va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi psixolog olimlaridan F.F.Ganjiyev, Z.T.Nishanova, F.F.Rasulova va boshqalar tomonidan agressiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan. Qayd etish kerakki, shaxsdagi agressiv xulq-atvor muammosi bo'yicha muqaddas manbalar va Sharqning qomusiy allomalari: Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar, ma'rifatparvar shaxslarning asarlarida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan L.V.Andreyeva, A.Bass, T.V.Burmenskaya, A.Darki, E.L.Golenisheva, O.V.Kobzeva, S.L.Kolosova, N.F.Suxareva, M.L.Melnikova, O.V.Mavlonova, N.A.Petrus va boshqalar tomonidan turli yosh davrlarida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi, jins farqlari, keltirib chiqaruvchi omillar ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan A.Bass, A.Bandura, L.Berkovits, R.Beron, D.Zilman, D.Richardson, S.Feshbax, G.Parens va boshqalar tomonidan agressivlikni keltirib chiqaruvchi omillar ilmiy tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan "Hozirgi zamon psixologiya ilmidagi dolzarb muammolar: yechimlar va imkoniyatlari" mavzusidagi ustuvor rejasi doirasida bajarilgan (2021-2025 y.y.).

**Tadqiqotning maqsadi** kichik maktab yoshidagi agressiv xulq-atvorning psixologik determinantlarini empirik jihatdan baholash hamda agressivlikni susaytirish bo'yicha psixokorreksion dastur ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvor motivlari namoyon bo'lishida yosh va jins farqlarini aniqlash;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxs xususiyatlari va agressivlik orasida bog'lanishlarni aniqlash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ota-onaning farzandlariga bo'lgan ustanovkalari agressiv xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi determinant ekanligini asoslash;

korreksion treninglar dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholash.

**Tadqiqot obyekti** etib kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorning bola ruhiy rivojlanishiga psixologik ta’sir jarayoni olingan bo‘lib, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 249-sonli umumta’lim maktabidan (8 nafar o‘qituvchi, 59 nafar o‘quvchi va ularning 56 nafar ota-onalari), Qarshi shahar 11-sonli umumta’lim maktabidan (8 nafar o‘qituvchi, 51 nafar o‘quvchi va ularning 48 nafar ota-onalari), Nukus shahri 32-sonli umumta’lim maktabidan (9 nafar o‘qituvchi, 43 nafar o‘quvchi va ularning 42 nafar ota-onalari), jami 324 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini** kichik maktab yoshidagi bolalarda agressiv xulq-atvorning psixologik determinantlari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda kuzatish, suhbat, so‘rov metodlari, shuningdek, “Mavjud bo‘lmagan hayvon” proyektiv metodikasi, A.S.Fomichenkoning “O‘quvchilar agressiv xulq motivlarini aniqlash”, R.Kettelning “Shaxs so‘rovnomasi”, E.Shefer va R.Bellning PARI metodikasi, M.V.Matyuxina, S.G.Yarikovalarning “Xayoliy eskperimental vaziyatlarni aniqlash” metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan: K.Pirson r-korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudent t-mezonidan foydalanib, tasdiqlandi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda ifodalangan:**

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvor motivlari namoyon bo‘lishiga ko‘ra “tengdoshlar guruhining salbiy ta’siri”da ahamiyatli farqlar mavjudligi tufayli agressiv xulq motivlari namoyon bo‘lishida yosh va jins farqlarining differentsiatsiyasi dalillangan;

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning agressiv xulq-atvor motivlari “ekstroversiya”, “intellekt”, “o‘ziga ishonch”, “optimizm”, “xotirjamlik”, “hissiy beqarorlik”, “mustaqillik”, “dadillik”, “uddaburonlik”, “o‘z-o‘zini nazorat qilish”ning agressivlik sifatlarini namoyon bo‘lishiga ikki tomonlama (manfiy va musbat) ta’sir etishi tufayli ustuvor shaxs xususiyatlariga bog‘liq ekanligi asoslangan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ota-onaning farzandlariga bo‘lgan ustanovkalarini farqlanishiga ko‘ra ikkinchi sinf o‘quvchilarida “bolaning irodasini bosish”, “oilaviy nizolar”, “ota-ona va bola o‘rtasida do‘stona munosabat”ning yetishmasligi, “onaning farzand tarbiyasida mustaqil emasligi” bolalarda tajovuzkorlikni kuchaytirsa, to‘rtinchi sinf o‘quvchilarida esa ota-onaning “bolada agressiyani yo‘qotishga intilish” ularda agressiyani susaytiruvchi determinant ekanligiga asoslanib, ota-ona-bola munosabatlari muhim psixologik omil ekanligi isbotlangan.

kichik maktab yoshidagi bolalardagi agressivlikni susaytirish uchun, ularning kognitiv (agressivlikning salbiy oqibatlari haqida tushuncha hosil qilish), emotsional (g‘azabini boshqacha ifodalash va boshqarish) va konativ (agressiv vaziyatlarda xulq-atvorda namoyon qilish) sohasiga ta’sir etish mexanizmlariga asoslangan “G‘azab qilma – dunyo seniki” nomli psixokorreksion dasturni kiritish zarurati dalillangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda agressiv xulq-atvor masalasi bo‘yicha dasturiy-uslubiy ta’minot takomillashtirilgan;

ta'lim tizimida ishlaydigan mutaxassislar psixologik tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy ishlanmalar yaratilgan va amaliyotga kiritilgan.

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressivlikni susaytiruvchi korreksion dastur yaratilib, aprobatiya qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, avvalo tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo'llangani, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan ishlab chiqilgan xulosa, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, qo'lga kiritilgan natijalardan oliy ta'lim muassasalarida "Rivojlanish psixologiyasi", "Yosh davrlari psixologiyasi", "Psixologik korreksiya", "Psixologik maslahat" fanlarini ilmiy manbaalar bilan boyitishda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar o'tishda va amaliyotchi psixologlar malakasini oshirishda xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan amaliyotchi psixologlar, ta'lim tizimida ishlaydigan psixologlar, psixologik tashxis, konsultativ markaz mutaxassislari faoliyatida foydalanishlari mumkin. Ishlab chiqilgan "G'azab qilma – dunyo seniki" nomli psixorreksion dasturdan universitetlarda, pedagogika institutlarida, psixologiya, pedagogika-psixologiya ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruzalar matni tayyorlashda innovatsion dasturlar ishlab chiqishda, psixokorreksiya fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tishda, ota-onalarlar va o'quvchilar bilan psixologik maorif ishlarini o'tkazish tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvorning psixologik determinantlari bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvor motivlari namoyon bo'lishiga ko'ra "tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri"da ahamiyatli farqlar mavjudligi tufayli agressiv xulq motivlari namoyon bo'lishida yosh va jins farqlarining differentsiatsiyasi dalillanganligiga oid ilmiy ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 24-noyabrdagi 262-son buyrug'iga asosan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yili 28-noyabrdagi 262-a-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvor motivlari namoyon bo'lishida yosh va jins farqlarini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning agressiv xulq-atvor motivlari

“ekstroversiya”, “intellekt”, “o‘ziga ishonch”, “optimizm”, “xotirjamlik”, “hissiy beqarorlik”, “mustaqillik”, “dadillik”, “uddaburonlik”, “o‘z-o‘zini nazorat qilish”ning agressivlik sifatlarini namoyon bo‘lishiga ikki tomonlama (manfiy va musbat) ta’sir etishi tufayli ustuvor shaxs xususiyatlariga bog‘liq ekanligiga oid ilmiy takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yili 24-noyabrdagi 262-son buyrug‘iga asosan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yili 28-noyabrdagi 262-a-son ma’lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxs xususiyatlari va agressivlik orasida bog‘lanishlarni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ota-onaning farzandlariga bo‘lgan ustanovkalarini farqlanishiga ko‘ra ikkinchi sinf o‘quvchilarida “bolaning irodasini bosish”, “oilaviy nizolar”, “ota-ona va bola o‘rtasida do‘stona munosabat”ning yetishmasligi, “onaning farzand tarbiyasida mustaqil emasligi” bolalarda tajovuzkorlikni kuchaytirsa, to‘rtinchi sinf o‘quvchilarida esa ota-onaning “bolada agressiyani yo‘qotishga intilish” ularda agressiyani susaytiruvchi determinant ekanligigiga asoslanib, ota-ona-bola munosabatlari muhim psixologik omil ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi 262-son buyrug‘iga asosan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yili 28-noyabrdagi 262-a-son ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ota-onaning farzandlariga bo‘lgan ustanovkalari agressiv xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi determinant ekanligi ochib berilgan;

kichik maktab yoshidagi bolalardagi agressivlikni susaytirish uchun, ularning kognitiv (agressivlikning salbiy oqibatlarini haqida tushuncha hosil qilish), emotsional (g‘azabini boshqacha ifodalash va boshqarish) va konativ (agressiv vaziyatlarda xulq-atvorda namoyon qilish) sohasiga ta’sir etish mexanizmlariga asoslangan “G‘azab qilma – dunyo seniki” nomli psixokorreksion dasturni kiritish zarurligiga oid ilmiy xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi 262-son buyrug‘iga asosan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yili 28-noyabrdagi 262-a-son ma’lumotnomasi). Natijada korreksion treninglar dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati tavsiflanib, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Agressiv xulq-atvor muammosining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda agressiya tushunchasining nazariy tadqiqi yoritilgan bo'lib, turli chet ellik olimlar tadqiqotlarida keltirilgan ta'riflari, agressiyaning turlari, agressiv shaxslarning tiplari, agressiyaning namoyon bo'lish mexanizmi va omillari, sharq mutafakkirlarining tadqiqot mavzusi bo'yicha qarashlari bayon qilingan.


Ushbu bobda agressiya va agressivlik tushunchalarini o'rganishda alohida yondashilgan bo'lib, agressiya tushunchasi lug'aviy jihatdan ochib berilgan va uning xorijiy tadqiqotchilar (R.Kratchfeld, N.Livson, V.Klayn, A.Bass, L.Berkovits, D.Zilman, R.Beron, D.Richardson, K.Xorni, E.From, D.Dollard, S.Feshbax, G.Parens, A.Bandura) tomonidan turlicha yoritilishi tushuntirilgan. Ular o'z ta'riflarida agressiyani insonning tug'ma o'zini himoya qilish, hukmronlikka intilish vositasi va shaxsning atrofdagi odamlar dushmanligiga qaratilgan reaksiyasi sifatida tadqiq etishgan. Buyuk allomalarimiz qo'lyozmalarida agressiyaga yondosh tushunchalar g'azabning tahlili kuzatiladi. Xususan, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abdulla Avloniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi mutafakkirlarning ma'naviy meroslaridagi tarbiyaviy g'oyalari, xulq-atvor va g'azab borasidagi qarashlari tahlil etildi. O'smirlardagi agressiv xulq-atvor reaksiyalarning shakllari, agressiv ustanovkali o'smirlar kommunikativ dezadaptatsiyasini psixologik-pedagogik korrektsiyalash imkoniyatlari, tarbiyasi qiyin o'smirlarning agressiv xulq-atvori, agressiv xulq-atvorli o'smirlarni korrektsiyalashda maktab o'qituvchilari va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati va agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashda bo'lajak pedagoglar kasbiy tayyorgarligining psixologik-pedagogik sharoitlari (T.V.Burminskaya, L.V.Andreyeva, M.L.Melnikova, L.A.Solomina, O.V.Istrofilova) ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonlik psixologlardan F.F.Rasulova o'smirlik davrida agressiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini, globallashuv davrida o'smirlardagi agressiv xulq namoyon bo'lishini F.F.Ganjiyev o'rgangan.

**“Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq-atvorning empirik o'rganilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobda agressivlikni aniqlovchi psixodiagnostik metodikalar tahlili, aniqlovchi tajribada foydalanilgan metodikalar natijalari va kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda agressiv xulq motivlari namoyon bo'lishidagi jins va yosh farqlari, agressivlik va shaxs xususiyatlari orasidagi bog'liqligi yoritilgan.

Ikkinchi bob kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning agressiv xulq-atvori psixodiagnostikasiga yo'naltirilgan bo'lib, unda o'tkazilgan metodikalarning tahlil natijalari keltirilgan. Tadqiqot kichik maktab yoshi davridagi 2 va 4-sinf

o'quvchilarida olib borilgan bo'lib, ularning agressivligini tashxis qilish uchun I.A.Furmanovning "Mavjud bo'lmagan hayvon" proyektiv metodikasidan foydalanildi.



**1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida agressivlik namoyon bo'lishining yosh farqlari**

Yuqoridagi rasmda 2-sinf o'quvchilarida quyi darajadagi agressivlik 66,2 %, o'rta darajadagi agressivlik - 29,8 % ni va yuqori darajadagi agressivlik - 4 % ni tashkil etishi ko'rinib turibdi. 4-sinflarda esa quyi darajadagi agressivlik 52,6 %, o'rta darajadagi agressivlik - 10,5 % ni va yuqori darajadagi agressivlik -36,9 % ni tashkil etishi ko'rinib turibdi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda agressivlikning yosh ulg'aygan sayin ortishi avvalo ularning yosh xususiyatlari bilan bog'liq. Yosh xususiyati irodaning umumiy yetishmasligi bilan bog'liq: ya'ni bu yoshdagi bolalarga o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yetishishda uzoq kurashish tajribasining, qiyinchiliklarni va to'siqlarni yengish malakalarining yetishmasligi hamda 4-sinfga borib o'quvchilarda muloqot qiladigan insonlar guruhi ham kengayib borishi, bola ko'proq mustaqillikka intilishi kuzatiladi. Shuningdek, bu holat bizningcha, ulardagi fiziologik o'zgarishlar bilan ham bo'lishi mumkin.

O'quvchilarning agressiv xulq motivlari, yoki nima uchun agressivlikni namoyon qilishi masalasi ham bizni qiziqitirdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ya'ni sinf rahbarlari va o'quvchilarga dars beradigan fan o'qituvchilaridan "O'quvchilarning agressiv xulq motivlarini aniqlash" metodikasini o'tkazdik va natijalarni 1-jadvalda aks ettirdik.

Quyidagi 1-jadvalda "OAVda zo'ravonlik sahnalarini tomosha qilish" shkalasi bo'yicha 2-sinf o'quvchilarining o'rta arifmetik qiymati 2,11 ga teng, 4-sinflarda bu ko'rsatkich 3,03 ga teng ( $t=-4,17$ ;  $p\leq 0,001$ ). Demak, to'rtinchi sinf

o'quvchilari ikkinchi sinf o'quvchilariga nisbatan OAVdan zo'ravonlik sahnalarini ko'proq ko'rishlari aniqlandi.

1-jadval

**A.S.Fomichenkoning “O'quvchilarning agressiv xulq motivlarini aniqlash” metodikasi bo'yicha olingan natijalari, (Styudent mezoni asosida n=153)**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'quv sinflari</b>	<b>O'rtacha Rang</b>	<b>t</b>	<b>p (ishonch darajasi)</b>
OAVda zo'ravonlik sahnalarini tomosha qilish	2-sinf	2,11	-4,17	,000***
	4-sinf	3,03		
Tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri	2-sinf	1,84	-3,85	,000***
	4-sinf	2,61		

Izoh: \*\*\* -  $p \leq 0,001$

Hozirgi paytda ommaviy axborot vositalari va IT texnologiyalari judayam rivojlangan davrda uyda bolalar televizordan to'g'ridan-to'g'ri yoki ota-onasi boshqa oila a'zolarining qo'l telefonlaridan internetga ulangan “You tube” ijtimoiy tarmog'i orqali zo'ravonlik, shafqatsizlik kadrlarini ko'rishini ota-onalar va sinf rahbarlari bilan suhbat o'tkazilganligida, shuningdek yuqoridagi agressiv xulq motivlarini aniqlash so'rovnomasi natijalarida kuzatdik. Bu agressiv videolar, o'yinlar, multfilm va kinofilmlarning inson psixikasiga, uning hissiy holatlariga, jumladan agressivligiga ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin.

Milliy salomatlik instituti olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda bu savolga aniqroq javob topishga harakat qilingan. Agar shaxsda agressiv xulq-atvor ma'lum darajada shakllangan bo'lsa, uning miyasi zo'ravonlik kadrlarini agressiv bo'lmagan insonlarga nisbatan boshqacha qabul qiladi, qayta ishlaydi. Agressivlik to'satdan paydo bo'lmaydi, u bolalikdan nerv sistemasi shakllanishi bilan rivojlanib boradi. Yillar o'tishi bilan bu tendensiya mustahkamlanib boradi va yetuklik darvida yaqqol namoyon bo'ladi. Agressiv va agressiv bo'lmagan insonlarning farqi ana shundadir.

“Tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri” shkalasi bo'yicha 2-sinf o'quvchilarining o'rta arifmetik qiymati 1,84 ga teng, 4-sinflarda bu ko'rsatkich 2,61 ga teng ( $t=-3,85$ ;  $p \leq 0,001$ ). Demak, to'rtinchi sinf o'quvchilari ikkinchi sinf o'quvchilariga nisbatan agressiyaga moyilligi bor yoki agressiv bolalar bilan do'stlashishi, ular bilan mahallada, sinfdan tashqari vaqtlarda birga ko'proq muloqot qilishlari aniqlandi.

Bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish orqali xulq-atvorning turli modellarini o'zlashtiradi. Shu bir qatorda tengdoshlari bilan muloqotda har xil xulq-atvor shakllanadi. Tengdoshlari bilan turli shovqinli o'yinlar, itarish, quvlash kabi o'yinlarda ularning agressiv xulq-atvori shakllanadi.

Oilada o'zlashtirilgan xulq-atvor ham tengdoshlari bilan o'zaro muloqotga ko'chiriladi. Bunday bolalar agressiv bo'lmagan tengdoshlari tomonidan chetga chiqarib qo'yiladi, lekin barcha bolalar ham agressiv bolani chetlatmaydi. Bir guruh

qabul qilmayotgan agressiv bolani boshqa agressiv xulq-atvorni qo'llab-quvvatlaydigan guruh qabul qiladi. Hattoki bu guruhda liderning holatini ham egallashi mumkin. Boshqa tomondan bu bola agressiya jazolanmaydigan guruhda uning yangi shakllarini o'zlashtiradi. Shunday qilib, agressivlik doim bolani ijtimoiy yakkalanishga olib kelmaydi.

Agressiv xulq-atvor motivlari bo'yicha ham jins farqlarini aniqlandi. 2-sinf o'quvchilarining natijalari yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### A.S.Fomichenkoning "O'quvchilarning agressiv xulq motivlarini aniqlash" metodikasi bo'yicha 2-sinf o'quvchilarida olingan natijalari, jinslar kesimida (Student mezoni asosida n=77)

Ko'rsatkichlar	O'quvchilar jinsi	O'rtacha rang	T	p (ishonch darajasi)
OAVda zo'ravonlik sahnalarini tomosha qilish	2-sinf qiz bolalar	2,07	-2,57	0,013**
	2-sinf o'g'il bolalar	2,87		
Tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri	2-sinf qiz bolalar	1,68	-2,26	0,029**
	2-sinf o'g'il bolalar	2,34		

Izoh: \*\* -  $p \leq 0,01$

OAVda zo'ravonlik sahnalarini tomosha qilish" shkalasi bo'yicha 2-sinf qiz bolalarida o'rta arifmetik qiymat 2,07 ga teng bo'lsa, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 2,87 ga teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $t=-2,57$ ;  $p \leq 0,01$ ). Bundan o'g'il bolalar qizlarga qaraganda zo'ravonlik manzaralari tasvirlangan kadrlarni ko'proq tomosha qilishlari aniqlandi. Agressiv mazmundagi video, multfilm, kinofragmentlarni ko'rgan o'g'il bolalarda agressivlik yanada ortadi. Qizlarda ham bu ko'rsatkich ortadi, lekin o'g'il bolalarga qaraganda sustroqdir.

"Tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri" shkalasi bo'yicha 2-sinf qiz bolalarida o'rta arifmetik qiymat 1,68 ga teng bo'lsa, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 2,34 ga teng ekanligi ko'rinib turibdi ( $t=-2,26$ ;  $p \leq 0,01$ ). Bu yerda ham o'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq tengdoshlar guruhining salbiy ta'siriga uchrashlari aniqlandi.

Bu holatni o'g'il bolalar ko'proq qizlarga qaraganda, ko'chada o'ynashi va aynan ko'chada agressivligi tufayli o'zining kuchli tomonlarini ko'rsatishga intiladi. Bir guruh uni qabul qilmasa, boshqa agressiya tan olinadigan tengdoshlar guruhlarga a'zo bo'ladi. Bunday guruhlarga agressiv xulq-atvor oddiy holat sifatida qabul qilingani bois, ular agressiv xulq-atvorning yangi shakllarini o'zlashtirishga, mustahkamlashga harakat qiladi.

Tadqiqotda agressiv o'quvchilarning shaxs xususiyatlari aniqlandi, "R.Kettel" metodikasi o'tkazildi, natijalar 3-jadvalda umumlashtirildi.

"A" ekstroversiya omili va emotsional beqarorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,322$ ;  $p\leq 0,01$ ). 2-sinf o'quvchilarida muloqotchanlik qanchalik kuchli bo'lsa, ular shunchalik hissiy beqaror bo'ladilar. A omiliga ko'ra yuqori baholarga ega bo'lgan bolalar ijtimoiy jihatdan yaxshiroq moslashgan, qizlar o'g'il bolalarga nisbatan o'rtacha yuqori ko'rsatkichlarga ega.

"A" ekstroversiya omil va o'z-o'zini himoya qilish orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,328$ ;  $p\leq 0,01$ ). Kichik maktab yoshidagi o'quvchi qanchalik ekstrovert bo'lsa, ularda o'z-o'zini himoya qilish shunchalik kuchli bo'ladi. Bizga ma'lumki, ekstrovert shaxslarning o'z "Men"lari tashqariga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular bilan bo'lgan har qanday voqea-hodisada boshqalarni ayblaydilar, o'z shaxslarini himoya qilib, "o'zlariga til tekkizmaydilar".

"C" o'z-o'ziga ishonch va emotsional beqarorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,259$ ;  $p\leq 0,05$ ). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchning ortishi emotsional beqarorlikning kamayishiga olib keladi. O'ziga haddan tashqari ishonchi, o'zini yuqori baholaydigan bolalarning emotsional beqarorligini hayotdan ko'p kuzatganmiz. O'ziga ishonch shkalasi bo'yicha yuqori ball to'plagan bola past xavotirlikka ega, o'ziga bo'lgan ishonchni va shunga mos ravishda xotirjamlik, barqarorlik, maktab talablarini muvaffaqiyatli bajarishga yaxshi tayyorgarlikni aks ettiradi.

"C" o'z-o'ziga ishonch va guruhda yuqori statusga intilish orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ( $r=-0,319$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bolada o'ziga ishonch qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik kam guruhda yuqori statusga erishishga intiladi. Xuddi shuningdek, "C" o'z-o'ziga ishonch va o'zining ustunligini ko'rsatishga intilish orasida ( $r=-0,304$ ;  $p\leq 0,01$ ); ranjitgan odamdan o'ch olish ( $r=-0,284$ ;  $p\leq 0,05$ ); katta bo'lish istagi ( $r=-0,275$ ;  $p\leq 0,05$ ); bola bilan shafqatsizlarcha munosabat ( $r=-0,293$ ;  $p\leq 0,01$ ); OAVda zo'ravonlik kadrlarini ko'rish ( $r=-0,314$ ;  $p\leq 0,01$ ) shkalalari orasida manfiy bog'lanishlar aniqlandi. O'zining ustunligini ko'rsatishga intiladigan, ranjitgan odamdan o'ch oladigan, katta bo'lish istagi yuqori bo'lgan o'quvchilarning, bola bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'ladigan, OAVda zo'ravonlik kadrlarini ko'radigan bolalarning o'ziga ishonchi quyi bo'ladi.

Mustaqillik (E) omil va emotsional beqarorlik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ( $r=0,274$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bolalarda mustaqillik qanchalik kuchli bo'lsa, emotsional beqarorlik shunchalik kuchli bo'ladi. Bu shkala bo'yicha yuqori natijaga ega bola mustaqil, hech kimga tobe bo'lmaydigan, o'z aytganida turadigan, atrofdagilardan ustun bo'lishga harakat qiladigan bolalardir. O'zini tasdiqlashga, o'zini bolalarga ham, kattalarga ham qarama-qarshi qo'yishga moyil bo'lgan va yetakchilik va hukmronlik istagi bilan ajralib turadiganlarda yuqori baholar qayd etiladi. Bolalarda ushbu xususiyatning namoyon bo'lishi ko'pincha xulq-atvor muammolari, agressiya mavjudligi bilan birga keladi; yetakchilik tendensiyalari ko'pincha haqiqiy timsolni topa olmaydi, chunki ular hali ijtimoiy o'zaro ta'sirning ko'plab shakllarini o'rganmagan. Bolalarda bu omilning namoyon bo'lishi ko'pincha "verbal" shaklda namoyon bo'ladi.

## 3-jadval

“O‘quvchilarning agressiv xulq motivlarini aniqlash” so‘rovnomasi hamda  
 “R.Kettel” metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiyon bog‘lanish,  
 (2-sinf; Pirson bo‘yicha, n=77)

Shkalalar	A	C	E	H	O	Q4
emotsional beqarorlik	-0,322**	-,0259*	0,274*	0,170	-0,457**	0,320**
tarbiyasizlik, qo‘pollik	-0,212	-0,217	0,019	0,174	-0,564**	0,211
sababsiz o‘z g‘azabini namoyon etish	-0,172	-0,119	0,150	0,076	-0,299**	0,181
guruhda yuqori statusga intilish	-0,152	-0,319**	0,040	0,124	-0,337**	0,229*
o‘zining ustunligini ko‘rsatishga intilish	-0,214	-0,304**	0,197	0,120	-0,429**	0,264*
o‘z-o‘zini himoya qilish	-0,328**	-0,224	0,209	-0,006	-0,321**	0,333**
ranjitgan odamdan o‘ch olish	-0,196	-0,284*	0,160	0,117	-0,340**	0,405**
katta bo‘lish istagi	-0,221	-0,275*	0,197	0,071	-0,278*	0,376**
o‘z nuqtai nazarini himoya qilish	-0,115	-0,204	0,269*	0,194	-0,333**	0,301**
oiladagi nomaqbul sharoit	-0,030	-0,205	-0,015	-0,023	-0,221	0,228*
bola bilan shafqatsizlarcha munosabatda bolish	-0,087	-0,293**	0,092	0,244*	-0,316**	0,402**
OAVda zo‘ravonlik sahnalarini tomosha qilish	0,017	-0,314**	0,005	0,030	-0,136	0,330**
Tengdoshlar guruhining salbiy ta‘siri	-0,056	-0,121	0,063	0,112	-0,274*	0,226*

Izoh: \*\* -  $p \leq 0,01$

Mustaqillik (E) omil va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish orasida musbat

bog'lanish aniqlandi ( $r=0,269$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bolalarda mustaqillik qanchali kuchli bo'lsa, o'z nuqtai nazarini himoya qilish ham shunchalik kuchli bo'ladi. Mustaqil bolalar har qanday vaziyatda, tengdoshlari, sinfdoshlari, kattalar bilan munosabatlarda ham o'zlarining fikrlarini astoydil himoya qilish, o'z fikrining to'g'riligini isbotlash xos.

Dadillik (H) omil va bola bilan shafqatsizlarcha munosabat orasida musbat bog'lanish aniqlandi ( $r=0,244$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bolalarda dadillik qanchalik kuchli bo'lsa, boshqa bola bilan shafqatsizlarcha munosabat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalardagi bu omil bolaning kattalar (ota-onalar va o'qituvchilar) bilan munosabatlarining xususiyatlarini aks ettiradi. 8-10 ball yuqori ko'rsatkich - jasur, qat'iyatli, tez qarorga keladiganlarga xos, kattalar bilan osongina muloqot qiladi.

Optimizm (O) va emotsional beqarorlik orasida ( $r=-0,457$ ;  $p\leq 0,01$ ); tarbiyasizlik, qo'pollik orasida ( $r=-0,564$ ;  $p\leq 0,01$ ); sababsiz g'azabni namoyon etish ( $r=-0,289$ ;  $p\leq 0,01$ ); guruhda yuqori statusga intilish ( $r=-0,337$ ;  $p\leq 0,01$ ); o'zining ustunligini ko'rsatishga intilish ( $r=-0,429$ ;  $p\leq 0,01$ ); o'z-o'zini himoya qilish ( $r=-0,321$ ;  $p\leq 0,01$ ); ranjitgan odamdan o'ch olish ( $r=-0,340$ ;  $p\leq 0,01$ ); katta bo'lish istagi ( $r=-0,275$ ;  $p\leq 0,01$ ); o'z nuqtai nazarini himoya qilish ( $r=-0,333$ ;  $p\leq 0,01$ ); bola bilan shafqatsizlarcha munosabat ( $r=-0,316$ ;  $p\leq 0,01$ ); tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri ( $r=-0,274$ ;  $p\leq 0,05$ ) shkalalari orasida manfiy bog'lanishlar aniqlandi. Yuqorida keltirilgan barcha agressiv xulq-atvor motivlarining ortishi optimizmning kamayishiga olib keladi. Optimist shaxslar sokin, xotirjam, optimistik tashvishli, g'amgin qo'rquvlarga to'la. Bunday bola esa, odatda, xotirjam va tushkunlikka kam beriladi, ko'pincha kayfiyati yo'q, past bahoga ega bo'lgan bola xotirjam, kamdan-kam hollarda xafa bo'ladi. Ko'rib chiqilayotgan shaxs xususiyati nevroitiklikning paydo bo'lishining asosidir.

Asabiylik (Q4) asabiylik va emotsional beqarorlik orasida ( $r=0,320$ ;  $p\leq 0,01$ ); guruhda yuqori statusga intilish ( $r=0,229$ ;  $p\leq 0,05$ ); o'zining ustunligini ko'rsatishga intilish orasida ( $r=0,264$ ;  $p\leq 0,05$ ); o'z-o'zini himoya qilish ( $r=0,333$ ;  $p\leq 0,01$ ); ranjitgan odamdan o'ch olish ( $r=0,405$ ;  $p\leq 0,01$ ); katta bo'lish istagi ( $r=0,376$ ;  $p\leq 0,01$ ); o'z nuqtai nazarini himoya qilish ( $r=0,301$ ;  $p\leq 0,01$ ); oiladagi nomaqbul sharoit ( $r=0,228$ ;  $p\leq 0,05$ ); bola bilan shafqatsizlarcha munosabat ( $r=0,402$ ;  $p\leq 0,01$ ); OAVda zo'ravonlik sahnalarini ko'rish ( $r=0,330$ ;  $p\leq 0,01$ ) tengdoshlar guruhining salbiy ta'siri ( $r=0,226$ ;  $p\leq 0,05$ ) shkalalari orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlandi. Shunday qilib, agressiv bolalarga asabiylik, emotsional beqarorlik, o'zining ustunligini ko'rsatishga intilish, o'z-o'zini himoya qilish, ranjitgan odamdan o'ch olish, tezroq katta bo'lish, o'z fikrini qattiq himoya qilish, oiladagi nomaqbul sharoitning kuchliligi, tengdoshlari va o'zidan kichiklar bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lish, OAVdan zo'ravonlik kadrlari aks etgan filmlar, multfilmlarni ko'proq ko'rish hamda tengdoshlar guruhi a'zolari bilan ko'proq muloqot qilish xos.

Uchinchi bob "**Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar agressivlik psixokorreksiyasi**" deb nomlangan. Biz tadqiqotimiz davomida ota-onaning farzandga ustanovkasi unda agressivlik namoyon bo'lishiga qay darajada ta'sir qilishi masalasiga ham qiziqdik. Buning uchun agressiya bilan Pari metodikasi shkalalari Pirson korrelyatsiya koeffitsienti orqali aloqadorlik o'rganildi, olingan natijalar quyidagi 4-jadvalda umumlashtirildi.

**E.Shefer va R.Bellning PARI metodikasi bilan agressiya darajasi o‘rtasida  
o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi  
2- sinf o‘quvchilarida (Pirson mezoni )**

Shkalalar	Agressiya
Bolaga fikrini bildirish imkoniyatlari	-0,059
Bolaga haddan tashqari g‘amxo‘rlik	-0,029
Bolaning irodasini bosish	<b>-0,461**</b>
Oilaviy nizolar	<b>-0,343**</b>
Haddan tashqari qattiqo‘llik	-0,197
Asabiylashish	-0,095
Bolalarning ota-onaga tobeligini rag‘batlantirish	-0,204
Boladagi agressivlikni yo‘qotish	-0,125
Uy bekasi rolidan norozilik	-0,086
Ota-ona va bola o‘rtasidagi do‘stona munosabat yetishmasligi	<b>-0,294**</b>
Bola parvarishida onaning mustaqil emasligi	<b>-0,398**</b>

Izoh: \*\* -  $p \leq 0,01$

